XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2022 - yil 5 - iyul VI-45-129-8-108-K/22 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tumanidagi mavjud ayrim geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida"gi O'RQ-303-son qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022- yil 17-iyundagi 18-01/156-sonli yig‘ilish bayonini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi raisi A.Djumayevning tumandagi ayrim Geografik ob'ektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi doimiy komissiyaga bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 17-iyundagi 18-01/156-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

3. Tuman bo‘yicha berilgan georgafik obyektlar (nomsiz ko‘chalar) mahallalar kesimida nomlash va qayta nomlash bo‘yicha berilgan takliflar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha mavjud geografik obyektlar (nomsiz ko‘chalar)ning nomlash bo‘yicha berilgan takliflar Respublika Kadastr agentligi ekspertiza komissiyasi tomonidan qonun

hujjatlariga muvofiq deb topilganligi inobatga olinib, tasdiqlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida davlat reestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

5.Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Raxmanov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.T.Djumayev**

Xalq deputatlari Oltinsoy tuman
Kengashining
2022 yil 5 iyuldagi
VI-45-129-8-108-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud nomsiz ko‘chalarni nomlash bo‘yicha berilgan nomlarni Respublika Kadastr agentlgi tomonidan ekspertizadan o‘tkazish maqsadida berilgan takliflar ro‘yxati

№	Gegrafik obeyktning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh:
1	2	3	4	5	6
1.	**Ko‘cha**	“Mustaqillikning 22 yilligi” MFY	Nomsiz	Tarovatli	Tarovatli nomi avvalo ushbu ko‘chada tong shafaqi tushib, tarovat kasb etgani uchun aholi tomonidan shu nom taklifi berildi.
2	**Ko‘cha**	“Mustaqillikning 22 yilligi” MFY	Nomsiz	Yashil makon	Ushbu nom hududda ko‘plab daraxtlar ekilishi yaxshi niyat qilinib, ko.cha doim yashillikka burkanib turishi uchun ushbu nom taklifi berildi.
3	**Ko‘cha**	“Mustaqillikning 22 yilligi” MFY	Nomsiz	Chashma	Ushbu ko‘chada ko‘proq chashma buloqlarini mavjud bo‘lgani uchun uchun ushbu nom taklifi berildi
4	**Ko‘cha**	“Mustaqillikning 22 yilligi” MFY	Nomsiz	Kafolat	Kafolat nomi, avvalo, ushbu ko‘chada yashayotgan insonlarning xolis va iymonli inson ekanligiga kafolat tarzida bo‘lishi uchun uchun shu nom taklifi berildi.
5	**Ko‘cha**	“Mustaqillikning 22 yilligi” MFY	Nomsiz	Ezgulik	Ushbu hududda insonlar tomonidan ko‘plab ezgu ishlarning bajarilganligi sababli ushbu nom taklifi berildi.
6	**Ko‘cha**	“Mustaqillikning 22 yilligi” MFY	Nomsiz	Bahor tongi	Ushbu ko‘chada doimiy tarzda bahor kelishi bilan uning tarovati sezilib turganligi sababli shu nom taklifi berildi.
7	**Ko‘cha**	“Mustaqillikning 22 yilligi” MFY	Nomsiz	Baraka	Ushbu ko‘chada yashayotgan insonlarning uylarida va kasb-korlarida doim baraka bo‘lganligi uchun ushbu nom taklifi berildi.